E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Jinoyat ishlari bo`yicha xalqaro hamkorlik prinsiplari va ekstraditsiya o`rtasidagi munosabatlar

Eshmatova Sevinch Sherzod qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro jinoyat huquqi fanidan kelib chiqqan holda turli olimlar va mutaxassislar tomonidan o`rganilgan jinoyat ishlari bo`yicha xalqaro hamkorlik prinsiplari va ekstraditsiya o`rtasidagi munosabatlar va ziddiyatlar muhokama qilinadi.

Kalit so`zlar: Xalqaro jinoyat huquqi, ekstraditsiya, xalqaro hamkorlik prinsiplari, huquqiy yordam, Xalqaro Jinoyat Sud statuti, universallik prinsipi, javobgarlikning muqarrarligi prinsipi, fuqarolik prinsipi .

KIRISH

Bir nechta yuridik manbalardan ma’lumki, huquqning boshqa sohalaridan farqli o`laroq, xalqaro jinoyat huquqining asosiy prinsiplari to`liq ishlab chiqilmagan. Bunga sabab sifatida ko`rsatilayotgan mazkur soha predmetining murakkabligi va ushbu muammoni tartibga soluvchi yagona normativ hujjatlarning mavjud emasligi holatlari borligiga qaramasdan, aksariyat xalqaro huquqshunos olimlar prinsiplar ustida ish olib borishgan. Dastlab, xalqaro jinoyat huquqining asosiy tamoyillariga to`xtaladigan bo`lsak, ular **xalqaro huquqning umumtan olingan prinsiplari**, **Xalqaro Jinoyat Sud statutida aks etgan prinsiplar** hamda **Jinoyat ishlari bo’yicha davlatlararo hamkorligiga oid xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikdagi o’ziga xos rahbariy prinsiplarni** o`z ichiga oladi.

Shuningdek, xalqaro hamkorlik yuzasidan olimlar ikki xil nazariyani keltirib o`tishgan, ya’ni umumiy va maxsus prinsiplardir. Mantiqan o`ylab qaraganimizda, insonlar o`rtasidagi hamkorlik naqadar zarur bo`lsa, davlatlar o`rtasidagi sheriklik va kelishuvlar ham shuncha muhim hisoblanadi, ayniqsa bu jinoyat masalasiga borib taqalganda. Jinoyat sodir etgan shaxslarni ushlash, tergov qilish yoki o`z davlatiga topshirish bir tomondan jamiyatga bo`lgan xavfni kamaytirsa, bir tomondan davlatlarning o‘z fuqarolarining huquqlarini davlat hududidan tashqari ham himoya qilish kabi maxsus prinsiplariga daxl qilishi mumkin. Bu kabi bahsli fikrlarni jinoyat ishlari bo‘yicha xalqaro hamkorlik mexanizmini amalga oshirishda yurisdiksiyani belgilab beruvchi prinsiplar asosida tahlil qilamiz.

Avvalo, davlatlar o`rtasidagi yurisdiksiya masalasiga e’tibor qaratsak, ma’lum bir sodir etilgan jinoyat, xalqaro hujjat va davlatlarning milliy qonunchiligida jinoyat deb topilganidan so‘ng, mazkur jinoyat yuzasidan qaysi davlat jinoiy ish qo‘zg‘atishi masalasi yuzaga keladi. Bunday holatlarda har bir davlat o‘zining yurisdiksiyasi doirasini belgilab olishi shart hisoblanadi. Umumiy jinoyat qonunida hududiylik prinsipiga asoslangan holda, jinoyat qayerda sodir etilgan bo‘lsa, shu davlat yurisdiksiyasi asosida jinoyat ishi qo‘zg‘atiladi. Lekin mazkur prinsip har doim ham belgilangan tartibda amal qilmaydi. Davlatlarning qaysi huquq tizimi oilasiga mansubligi, xalqaro shartnomalarda belgilangan shart va majburiyatlar va tegishli talablariga qarab boshqa qoidalar vujudga kelishi keltirib o`tilgan. Shu sababli ham tegishli nazariy manbalarda **universallik**, **javobgarlikning muqarrarligi** va **fuqarolik** prinsiplarining xalqaro hamkorlik masalasida muhim rol o`ynashi haqida so`z yuritilgan.

Endi esa mana shu prinsiplarni **ekstraditsiya** bilan bog`lab, ular o`rtasidagi munosabatlarni aniqlaymiz. Ma’lumkin, ekstraditsiya tushunchasi bir necha asrlar ilgari ham mavjud bo`lib, mamlakatlararo xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga va jinoyatchilarning jazodan qutilib qola olmasliklariga zamin yaratadi. Xususan, A.X.Saidov

ektraditsiya tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: *"Davlatlarning xalqaro hamkorligida amalga oshiriladigan jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatishning turlaridan biri jinoyatchini ushlab qaytarib berishdir. Ekstraditsiya davlat tomonidan o'z hududidagi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hujumni ijro etish uchun boshqa davlatga topshirishni bildiradi".* Ammo ushbu hamkorlik ayrim prinsiplarning buzilishiga olib kelishi ham mumkin.

Demak, dastlab **universallik prinsipi** bo`yicha tahlil qiladigan bo`lsak, butun xalqaro hamjamiyatning asosiy qadriyatlariga tajovuz qiluvchi qilmishlar uchun hamjamiyatning a'zosi bo'lmish har qanday davlat, bunday huquqbuzarliklar qayerda sodir etilganidan qat'iy nazar, javobgarlik belgilanishining lozim ekanligini nazarda tutadi. Ammo mazkur qoida ekstraditsiya masalasi bilan bog`langanda biroz noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkin. Chunki har bir davlat o`z suverenitetiga va mamlakat yaxlitligiga ega. Ushbu mustaqil subyektlar o`rtasidagi jinoyat sodir etishda gumonlanayotgan va ayblanayotgan shaxslarni so`rayotgan davlatga ushlab berish harakatlarida biroz nomutanosiblik yuzaga kelishi, ya'ni davlatlar bilan tuzilgan ikki va ko'p tomonlama shartnomalar yoki davlatlarning milliy qonunchiligida fuqarolarini ushlab bermaslik kabi belgilangan qoidalar zid kelishi yoki buzilishiga olib kelishi muqarrar. Bu esa universal yurisdiksiya prinsipini davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini buzuvchi, uning ichki ishlariga aralashish imkonini yaratib beruvchi bir qurol sifatida gavdalanishi ham mumkin. Biroq, mazkur prinsipning ishlaganligini ushbu jinoyat ishi orqali tahlil qilishimiz mumkin. 1982-yildan 1990-yillar orasida Chad davlati prezidenti bo'lgan Hissene Habre ishida dunyoda ilk bor bu kabi sud jarayoni, ya'ni boshqa davlat boshlig'iga nisbatan ikkinchi davlat tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilishi masalasi ko`rilgan. Bundan tashqari, bu Afrika uchun ham ilk bor universal yurisdiksiya prinsipining qo'llanilishi deyish mumkin. H.Habre o'rnatgan diktaturasi oqibatida o'n minglab insonlarning o'limiga sabab bo'lgan qiynoq, insoniyatga qarshi va harbiy jinoyatlar sodir etganlikda ayblangan va universal yurisdiksiya tamoyili asosida umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan bo`lsa-da, immunitet masalasida juda ko`plab tortishuvlar yuzaga kelgan.

Keyingi tamoyil, ya'ni javobgarlikning muqarrarligi prinsipi universal prinsipning mantiqiy davomi bo'lib, har bir davlatning xalqaro jinoyatchilarni jazolash bo'yicha majburiyatlarga egaligini anglatadi. Mazkur qoida O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ham mustahkamlab qo`yilgan.[1] Nega deganda, jinoyatchi bor ekan, unga jazo berish, albatta, zarur hisoblanadi. Biroq, ekstraditsiya masalasida yuqorida aytib o`tganimizdek, muammo yana davlatlarning mustaqil subyekt ekanligiga borib taqaladi. Aslida, prinsipni to`g`ridan to`g`ri tahlil etadigan bo`lsak, jinoyat sodir etgan har bir shaxs tegishli javobgarlikka tortilishi zarur. Ammo mazkur tamoyilni davlatlar o`rtasidagi ekstraditsiya xususida ko`radigan bo`lsak, biroz chetlab o`tishi mumkin. Xususan, AQSH misolida tahlil qilsak, 1982-yilgi qonuniga ko`ra, Amerika o`z hududidagi shaxslarni faqatgina AQSH va so`rayotgan davlat o`rtasida ekstraditsiyaga oid maxsus shartnoma bo`lgan taqdirdagina ushlab berishi mumkin. Garchi, bu yuridik jihatdan mustahkamlangan qoida bo`lsa-da, o`z-o`zidan ekstraditsiyani amalga oshirish majburiyatini yuzaga keltirmaydi. Bu davlat suveren ekanligi hamda o`zi xohlagan kimsaga boshpana berishga haqli ekanligidan kelib chiqadi.[2] Ya'ni mazkur bayon orqali AQSH o`zining mustaqilligiga alohida e'tibor berayotganligi va hech qanday shartnoma va prinsiplar bunga daxl qila olmasligini nazarda tutmoqda.

Isroil davlatining 1954-yildagi "Ekstraditsiya to`g`risida"gi qonuniga ko`ra esa, chet el davlati tomonidan jinoyat sodir etishda ayblangan yoki shu munosabat bilan sudlangan hamda jazoni o`tash uchun so`ralayotgan shaxs faqatgina ikki tomonlama shartnoma mavjud bo`lgandagina topshiriladi. Bundan kelib chiqadiki, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsni so`rayotgan davlatga topshirish mamlakatlar mustaqil subyekt ekanligi sababli o`z xohishlariga

[1] https://lex.uz/docs/-111453

[2] Ekstraditsiya bo`yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik. Monografiya. D.Umarxanova. T-2010

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

bog`liq bo`ladi. Mazkur kelishuv ikki tomonlama xalqaro shartnomalar orqali tartibga keltirilganligi muhim o`rin tutadi. Bu esa xalqaro hamkorlik prinsiplaridagi javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini o`z ichiga olgan ekstraditsiya masalasi ayrim davlatlarda faqatgina ikki tomonlama shartnomalar orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi.

O`zbekistonda esa, asosan, jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlikning alohida uch xil yo'nalishini o`z ichiga olgan shartnomalarni tuzish amaliyoti mavjud. Bulardan, jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalar, ushlab berish to'g'risidagi shartnomalar hamda mahkumning jazoni o'tash uchun u fuqarosi bo'lgan davlatga topshirish to'g'risidagi shartnomalardir.[3]

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik sohasida **fuqarolik prinsipi** ham mavjud bo`lib, ekstraditsiya faqat jismoniy shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi. Uni qo'llash mobaynida ushlab berilayotgan shaxsning qaysi davlat fuqaroligiga mansubligi muhim o'rin tutadi. Shartnomalar, odatda qoida tariqasida shartlashgan taraflar fuqarosini ushlab berish masalasini hal etsa-da, o'z fuqarolariga taalluqli normalarni ham qamrab oladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashga bag'ishlangan ko'plab shartnoma va Konvensiyalarda davlatning o'z fuqarolarini ushlab berishdan bosh tortish huquqi ko'zda tutilgan.[4] Xususan, so`zimiz isboti sifatida ko`plab mamlakatlar qatori O`zbekiston Respublikasining yangilanayotgan Konstitutsiya loyihasining 23-moddasini ham ko`rsatish mumkin: *O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas.* Shu sababli, ko`plab huquqshunos olimlar o`rtasida mazkur masala turli qarama qarshi fikrlar mavjud bo`lishiga olib kelgan. Bir guruh olimlar har bir davlat o'z fuqarolarini boshqa davlat manfaatlariga zarar yetkazishdan tiyib turishga majbur va shu bois, u o'z fuqarolarining chet elda sodir etgan barcha og'ir jinoyatlari uchun jazolashi yoxud ushlab berishi lozim desa, boshqa guruh esa davlat zimmasiga o'z fuqarolarini himoya qilish majburiyati yuklangan va davlat o'z fuqarosini boshqa davlatga ushlab berar ekan, o'z mamlakatida yaratib beriladigan sud ish yurituvi kafolatlaridan mahrum etadi va shu yo'sinda uni muhofaza qilish majburiyatini buzishi haqida bahs etishadi.[5]

Umuman olganda, davlatlar o`rtasidagi xalqaro hamkorlik, nafaqat jinoyat sohasida, balki har bir yo`nalishda mamlakat rivojlanishi, ayniqsa har bir jinoyatning jazosiz qolmasligiga zamin yaratadi. Biroq, tanganing boshqa tarafi kabi mazkur huquqiy yordam va ekstraditsiya masalasi davlatlarning suverenligi va mustaqilligiga daxl qilishi mumkinligini ham e'tibordan chetdan qoldirmaslik zarur. Yuqorida keltirib o`tilgan prinsiplar: universallik, **javobgarlikning muqarrarligi va fuqarolik tamoyillari xalqaro jinoyat huquqida muhim o`rin tutishiga qaramasdan,** mazkur masala bo'yicha yagona fikr mavjud emasligi bilan birgalikda qarama-qarshiliklar ham uchrashiga guvohi bo'ldik. Biroq, mazkur istisnolar xalqaro hamkorlikdagi prinsiplarning ishlayotganligini to`liq cheklaydi deya olmaymiz.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik qilishning asosiy prinsiplari o'zini ichiga olgan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari, jinoyat ishlari bo'yicha o'zaro huquqiy yordam berish prinsiplari hamda ekstraditsiya institutining asosiy prinsiplariga tayangan holda, uning muhim g'oyalarini o'zida mujassam etadi va mazkur tamoyillar davlatlarning milliy qonunchiligida va jinoyat kodekslarida o`z aksini topgan.

[3] Ekstraditsiya bo`yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik. Monografiya. D.Umarxanova. T-2010
[4] Xalqaro jinoyat huquqi. Darslik. D.Umarxanova, O. Saidov, D.Egamberdiyev, T-2022
[5] Xalqaro jinoyat huquqi. Darslik. D.Umarxanova, O. Saidov, D.Egamberdiyev, T-2022

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://lex.uz/docs/-111453
2. Ekstraditsiya bo`yicha xalqaro-huquqiy hamkorlik. Monografiya. D.Umarxanova. T-2010
3. Xalqaro jinoyat huquqi. Darslik. D.Umarxanova, O. Saidov, D.Egamberdiyev, T-2022



WORDLY
KNOWLEDGE